

ONA TILI (O‘ZBEK TILI)NI O‘QITISHDA ZAMONAVIY TA‘LIM
METODLARIDAN FOYDALANISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6551072>

Aytmuratova Eleonora Baxitovna

Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Nukus shahri 22-IDUM

O‘zbek tili fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. Umumta‘lim maktablarida o‘quvchilarga uzviylashtirilgan Davlat ta‘lim standartlari asosida bilim berish asnosida kerakli bilim, malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish o‘qituvchidan kuchli bilim, yuksak kasb mahorati va tinimsiz mehnat hamda zamonaviy o‘quv texnologiyalarini o‘zlashtirishni talab qiladi. Ayniqsa, ona tili fanini o‘qitishda o‘quvchilarning yozma savodxonligini oshirish, mustaqil fikirlash va o‘z mulohazalarini yozma bayon qilish malakalarini shakllantirish, yozma nutqiy rivojlantirish omillari eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu sababli ona tilini o‘qitishda samarali hisoblangan zamonaviy ta‘lim metodlaridan namunalar keltirdik.

Kalit so‘z: Nutq san‘ati, imlo, noa‘nanaviy ta‘lim, faollik, ona tili, mashqlar, o‘zlashtirish malakasi.

Abstract: The formation of the necessary knowledge, skills and abilities in the teaching of students in secondary schools on the basis of integrated State educational standards requires a strong knowledge, high professionalism and tireless work and mastery of modern teaching technologies. One of the most important issues in the teaching of the native language, in particular, is the development of students' written literacy, the formation of skills of independent thinking and written expression of their opinions, the development of written speech. For this reason, we have provided examples of modern teaching methods that are considered effective in teaching the mother tongue.

Keywords: Speech, spelling, non-traditional education, activity, mother tongue, exercises, mastery skills.

Demak, yozma nutq san‘ati ham ko‘hna va boy tarixga ega. Ota-bobolarimiz, ulug‘ alomalarimiz azal- azaldan xattotlik ilmini o‘zlashtirib, og‘zaki nutq va yozma nutq uzviyligini ta‘minlab kelishgan.

Sharq yozuv tarixida yozma nutqning ahamiyatiga katta e‘tibor berilgan.


Chunonchi, bugungi kunda umumta‘lim maktablarida ona tili fanlarini o‘zlashtirishda o‘quvchilarning yozma nutq malakalarini oshirishda yangi



pedagogik texnologiyalar, boy tajribalar va qiziqarli o'yinlar orqali mashg'ulotlarni tashkil qilish orqali kutilgan natijalarni olish mumkin.

O'quvchilarning o'z fikrini yozma bayon qilishida ona tili ta'limi jarayonida egallagan ko'nikma va malakalari u yaratgan matnda aks etadi.

Bunda:



Demak, yozma nutq malakasini hosil qilish ona tili ta'limining asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Zero, maktab ona tili ta'limining bosh maqsadiga ko'ra dars mashg'ulotlari o'quvchida ijodiylik, mustaqil fikrlash malakalarini chuqurlashtirish, ijodiy fikr mahsulini nutq vaziyatiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda, to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirishga va rivojlantirishga qaratilmog'i kerak. Bu muhim vazifani amalga oshirishda ona tili ta'limi jarayonida tashkil etiladigan turli usullar orqali yozma malakalarini oshirishga xizmat qiladigan pedagogik texnologiyalarning o'ziga xos o'rni bor.

Tilning o'ziga xos nafosatini o'quvchilarga yetkazish, his qildirish, sezish va undan oqilona foydalanish maqsadida hozirda ona tili ta'limida an'anaviy usullardan tashqari zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanilmoqda. Keyingi yillarda breynrayting, breynstorming, aqliy hujum, bumerang, blits-so'rov, klaster, keys-stadi, germenektiv suhbat kabi turli tuman metodlar paydo bo'ldi [1, 180- bet]. Shunday usullardan biri kakografiyadir.

Kakografiya so'zi lotincha **kakos** – yomon, xunuk, yoqimsiz va **graphos** – yozmoq so'laridan olingan bo'lib, muayyan maqsadni ko'zlab xatoliklarga yo'l qo'yilgan matnni tuzatirish orqali o'quvchilarga imloni o'rgatish usuli sanaladi. Bu usulning pedagogik va didaktik jihatlari hali ochib berilmagan [2, 13-bet]. Rus tilida *какофонический, какофония* degan so'zlar mavjud bo'lib, ularga lug'atlarda *quloqqa yoqmaydigan, yoqimsiz, nosoz, g'aliz; uyg'unlashmagan, yoqimsiz tovushlar yig'indisi* degan izohlar beriladiki, bu so'z semantikasiga salbiy baho yuklaydi [3, 414-bet]. Shunga ko'ra, kakografiya usulida yozuv bilan bog'liq g'alizlik, yoqimsizlik

yashirinib yotganga o'xshaydi, ammo orfografik nuqtayi nazardan qaralganda u bilan bog'liq didaktik hamda pedagogik jihatlarni ochib berish masalaga oydinlik kiritishi mumkin.

Kakografiya interfaol usullardan biri sifatida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, narsalarni bir-birlari bilan solishtirishga, izlanishga, masalaning yechimini topishga, eng muhimi ona tili darslarida olingan bilim va malakalariga asoslanib, muayyan mavzular bo'yicha zaruriy xulosalar chiqarishga yordam beradi. O'quvchilardagi loqaydlik, beparvolikni yo'qotib, dadillikka, ijodkorlikka chorlaydi, mutelik, tobelik, nafaollik kabi salbiy xususiyatlarga barham beradi.

Ayniqsa, fonetika, grafika, orfografiya, leksika va morfologiya bo'limlari bilan bog'liq amaliy darslarni o'tishda kakografiya usuli yaxshi samara beradi. Masalan, o'quvchilarga unli va undosh tovushlar bo'yicha yetarlicha ma'lumotlar berilgach, "Mustahkamlash darslari" yoki "Takrorlash darslari" da turli topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunda asosiy e'tibor so'zlarning aytilishi va yozilishi o'rtasidagi farqqa qaratiladi.

Tajribadan ma'lumki, o'quvchilarning aksariyati ona tili darslarida imlo qoidalarini puxta o'zlashtirmaydilar. So'zlarni qanday aytilsa, shunday yozishga odatlanib qoladilar. Shuningdek, o'quvchilarning nutqidagi dialektal xatoliklar ularning savodxonligiga soya soladi. Bu esa bora-bora ulardagi savodxonlik darajasining qotib qolishiga, so'zlarning muntazam ravishda xato yozilishiga sabab bo'ladi.

Masalan, o'quvchilarning og'zaki nutqida *baho, bahor, bilan, yulduz, teatr, savol, orden, obod, marvarid, shanba, mas'ul, daryo* kabi so'zlarni *boho, bohor, blan, yuldiz, tiatr, sovol, ordin, obot, marvarit, shamba, ma'sul, dayra* tarzida talaffuz qilish va shu asosda xato yozish amaliyotda uchraydi. Bu narsa ularning unli va undosh harflar imlosi bo'yicha ona tili darslarida yetarlicha bilim va malakaga ega bo'lganliklarini ko'rsatadi. Bu kabi xatoliklarning oldini olish maqsadida "O'zbek tilining imlo qoidalarini" dagi "Ayrim unli va undoshlar imlosi" yuzasidan tegishli nazariy ma'lumotlar mavzular o'tilgach, quyidagicha topshiriq beriladi:

So'zlarni o'qing, xato yozilgan o'rinlarni topib, o'zbek tilning imlo qoidalariga mos ravishda ularni to'g'rilang va daftaringizga ko'chirib yozing.

Bugalter, hayol, xayo, xolol, momila, xuqiq, rektir, kanferensiya, kamyuter, maylis va hokazo.

To'g'ri yozilishi: *buxgalter, xayol, hayo, halol, muomala, halol, huquq, rektor, konferensiya, kompyuter, majlis.*

Kakografik yo'nalishdagi bunday topshiriqlarni bajarish bilan quyidagi natijalarga erishish mumkin:

- O'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi aloqa mustahkamlanadi;



• O‘quvchilar ona tilidan olingan bilim va malakalarni xotirlashga, esga olishga harakat qiladi;

- Materiallarni bir-biriga solishtiradi, taqqoslaydi;
- Xulosalar chiqaradi, orfografik bilimlarni mustahkamlaydi.

Ayniqsa, og‘zaki nutqda *h - x, b - p, d - t, z - s* kabi birining o‘rniga ikkinchisi ko‘p qo‘llaniladigan undosh tovushlarning imlosini o‘rgatishda kakografiya usuli yaxshi samara beradi. Bunda xato yozilgan so‘zlarni o‘quvchilarga slaydlar orqali ko‘rsatish, sinf taxtasiga ataylab xato yozish, so‘zlari xato yozilgan tarqatma materiallarni qo‘llash kabi vositalardan foydalanish unumli. Masalan:

Xato yozilgan so‘zlarni aniqlab, ularni imlo qoidalariga mos ravishda to‘g‘rilang va daftaringizga ko‘chirib yozing.

Orombahsh, zahira, hoxish, xol-ahvol, hiyonat, ihlos, xar hil, xamma, Xindiston, hatti-xarakat, hayol

To‘g‘ri yozilishi: *orombaxsh, zaxira, xohish, hol-ahvol, xiyonat, ixlos, har xil, hamma, Hindiston, xatti-harakat, xayol.*

Kakografiya usuli leksikologiya bilan bog‘liq mavzularni o‘tishda ham qo‘l keladi. Matn ichida bir tovush bilan farqlanuvchi dars-darz, bob-bop, mart-mard, qasr-kasr, qaram-karam, halok-halak, kaft-kift, asl-asil, asr-asir, oxir-axir-oxur, chog‘-choq-choh singari paronim so‘zlarni xato yozib, o‘quvchilardan ularni to‘g‘rilab yozishni so‘rash ulardagi bilimlarni mustahkamlashga olib keladi.

Xato yozilgan paronim so‘zlarni toping, ularni imlo qoidalariga mos ravishda to‘g‘rilab, daftaringizga ko‘chiring.

Birovga choq qazisang, o‘zing tushasan. Mart bir o‘ladi, nomart – ming. Qarz ikki qo‘ldan chiqadi. Onangni kiftingda ko‘tarsang, singlingni kaftingda ko‘tar.

Dunyoga boq, qaddi sendek kim bor yana,

Dovrug‘i ham dardi sendek kim bor yana,

Xalq bo‘lishga haddi sendek kim bor yana,

Moziyni yot etay desang – xalq bo‘l, elim! [4, 10-bet].

Gaplardagi ***choh, mard, momard, qars, kaft, kift, yod*** so‘zlari noto‘g‘ri yozilgan. Buni faqat o‘ylash, fikrlash, leksikologiya bo‘yicha o‘tilganlarni eslash, xotirlash va zaruriy xulosalar chiqarish orqaligina topish mumkin. Bu esa o‘quvchilarning xotirasini mustahkamlashga yordam beradi, ulardagi mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Bunday topshiriqlar o‘quvchilardagi ko‘rish, eslash, narsalarni bir-biriga solishtirish va zaruriy xulosalar chiqarish kabi aqliy-ruhiy xususiyatlarning rivojlanishiga turtki bo‘ladi.

Kakografiya usulidan tashqari o‘quvchilarda yozma nutq malakalarini oshirishda quyidagi «Eslab qol», «Xato top», «Izoh ber», «Davom ettir», «Tinish



belgini qo‘ying», «Jumlani to‘g‘ri tuz» , «Donolar bisotidan» kabi ta‘limiy o‘yinlardan unum foydalanish katta ahamiyat kasb etadi.

«*Xato top*» o‘yini. Bunda o‘quvchilar guruh bo‘lib ishlasa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Har bir guruhga xato yozilgan so‘zlar berilgan matnlar tarqatildi. Matn tanlashda o‘tilgan mavzuni inobatga olish kerak. Masalan : «Uyushiq bo‘laklari» , «Undalmalar» yoki «Unli tovushlar» mavzulari asosida matnlar tayyorlash mumkin.

Guruhlar xato yozilgan so‘zlarni yoki tinish belgilarini aniqlaydilar. Belgilangan vaqtdan so‘ng matnlar o‘zaro almashinib, guruhlar o‘zaro xatolarini ko‘rib chiqadilar. Qaysi guruh qanday natijaga erishganini ekranda berilgan to‘g‘ri matn orqali bilib oladilar. Bu usul o‘quvchilarning yozma savodxonligini oshirishda yordam beradi[5, bet-37-40].

Darslarni musobaqa tarzida tashkil etilganda bu o‘yinda foydalanish mumkin.

«*Izoh ber*» o‘yini. Bu o‘yinda «Dam olish daqiqasi»da foydalanish mumkin. Oq qog‘ozda boshqa tillardan o‘zlashtirilgan yoki ma‘nosi qiyin so‘zlar, ko‘p ma‘noli so‘zlar yozib qo‘yilib, sinf taxtasiga ilinadi. O‘quvchilar navbat bilan chiqib, so‘zlarning izohini yozadilar. Masalan:

Sarbon	karavonboshi
Chilvir	ingichka arqon
Ranj	ozor, alam
Kamarbasta	xizmatga tayyor.

Bunda iboralaridan foydalanish ham mumkin:

Yog‘ tushsa yalagudek- toz

Kapalagi uchib ketdi- qo‘rqmoq

O‘yin davomida o‘quvchilarning yozma nutqda so‘zlardan va iboradan unumli foydalanish malakasi oshadi.

«*Davom ettir*» o‘yini. O‘yin davomida o‘qituvchi o‘quvchilarning o‘z tasavvurlarini yozma bayon qilishga o‘rgatadi. Bu kichik hikoya, ertak yoki bog‘lanishni matn bo‘lishi mumkin.

O‘qituvchi mavzu yozilgan qog‘ozni tarqatadi. O‘quvchilar partalarda o‘tirgan holda oldindan orqaga qarata mavzu asosida bittadan gap yozib, qog‘ozni uzatadi. O‘quvchilar o‘zlaridan oldin yozilgan fikrlarni to‘ldirib, mavzuga mos gaplarni yozadilar. Masalan:

O‘zbekiston – Vatanim manim.

O‘zbekiston men tug‘ilib, o‘sgan diyori.

Men o‘z Vatanimni sevaman.

O‘zbekiston serquyosh, go‘zal diyori.



Bu usul o'quvchilarni hamjihatlikka tarbiyalaydi. Bog'lanishli matn yaratish malakasini rivojlantiradi, fikrlash doirasini kengaytiradi.

Darsning aralash turlarida, takrorlash darslarida bu ta'limiy o'yindan unumli foydalanish mumkin. Musobaqa usulda tashkil qilish yaxshi samara beradi.

«*Jumlani to'g'ri tuz*» *texnologiyasi*. Bu o'yinni tashkil etishdan maqsad o'quvchilarni uslubiy xatolarga yo'l qo'ymaslikka o'rgatish hamda yozma va og'zaki nutqni ravon va chiroyli bo'lishiga erishish asosiy omil hisoblanadi.

O'qituvchi jumlar chalkash bo'lgan gaplarni proyektor orqali ekranda namoyish qiladi va o'quvchilar jumalarni to'g'irlab yozadilar. Masalan:

Mashina chang ko'tarildi yurib ketgach, orqasidan.

Mashina yurib ketgach, orqasidan chang ko'tarildi.

Ba'zi she'rlardagi jumalarda ro'y bergan o'zgarishlar she'riy qofiya yoki ohangdorlik talabi ekanligi ham inobatga olinib, o'quvchilarga tushuntiriladi.

«*Ma'nodoshini top*» *o'yini*. Bunda oq qog'oz va markerdan foydalanib o'yin tashkil qilinadi. O'quvchilar sinf taxtasida navbat bilan oq qog'ozdan berilgan so'zning ma'nodoshini topadi. Masalan:

Yozuvchi – adib, muallif, avtor.

Qadimiy – ko'hna, osori- atiq, eski, azaliy.

Bajarmoq – ijro qilmoq, amalga oshirmoq, ishlab chiqmoq.

Yuz – aft, bashara, chehra, oraz.

Bunda o'quvchining so'z boyligi oshadi. Yozma nutqda takroriy g'arizliklarga yo'l qo'ymaslikka o'rgatiladi. Nutqning go'zal bo'lishiga e'tibor qaratiladi. So'zni to'g'ri qo'llash malakasi rivojlanadi.

«*So'zga so'z*» *o'yini*. Bu usulda qarama- qarshi so'zlarni o'zaro keltirish bilan yoki so'zning oxirgi harfiga so'z topish kabi yo'l bilan tashkil qilinadi.

Bu jarayonda ko'ptokdan foydalanilsa, o'quvchilarda kayfiyat ko'tariladi, jismoniy harakat orqali dam olish daqiqasi tashkil qilish mumkin. Masalan:

1-o'quvchi: “Oq” deb ko'ptokni ikkinchi o'quvchiga otadi, ikkinchi o'quvchi “Qora” deb ko'ptokni oshiradi. Keying o'quvchi oxirgi harf “a” ga “Achchiq” deb boshlasa, keying o'quvchi “Shirin” deb javob beradi. Navbatdagi o'quvchi “Nafis” deb ko'ptokni oshirsa, keying o'quvchi “Dag'al” deb davom ettiradi. Bu o'yin o'quvchilarning topqirlikka, chaqqonlikka va lug'at boyligini oshirishga yordam beradi. Yozma nutqda bu so'zlardan unumli foydalanishga o'rgatadi.

Ona tili fanidan dars jarayonlarida o'quvchining yozma savodxonligi, imlo qoidalarini mukammal o'zlashtirganligi va yozma nutqning rivojlanganligini hamda husnixat bilan yozishini inobatga olib, yangi pedagogic texnologiyalar, ta'limiy o'yinlar orqali mashg'ulotlarni tashkil etish kelajakda yetuk intellectual barkamol avlodni tarbiyalashda muhim omil bo'lib hisoblanadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shayxislamov, N. (2021). O'QUVCHILARNING YOZMA SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA YOZMA ISHLARNING O'RNI. Scientific progress, bet-180.
2. Shayxislamov, N. (2020). Lingvokulturologiyaning tarixiy va nazariy asoslari. O'zbekistonda ilm-fan va ta'lim, bet-13.
3. Shayxislamov, N. (2021). Tilshunoslik nazariyasi va tushunchasi. The 21st Century Skills for Professional Activity, bet-414.
4. Шайхисламов, Н. (2021). ЗАМОНАВИЙ ТИЛШУНОСЛИК ЙЎНАЛИШИ: КОНТАКТ ЛИНГВИСТИКАСИ. Scientific progress, bet-10.
5. Расулова, Р. Б. (2020). Она тили фанини ўқитишда иқтидорли ўқувчиларни аниқлаш ва уларнинг нутқ маданиятларини оширишда замонавий педагогик технологиялардан фойдаланиш. Ta'lim, fan va innovatsiya, 1(2), 37-40.

